
Yettinchi chaqiriq Xalq deputatlari Qo'shtepa tumani Kengashining
3-sessiyasi bo'lib o'tdi

Qo'shtepa tumani hokimligining majlislar zalida tuman Kengashi deputatlari, siyosiy partiyalar rahbarlari hamda ommaviy axborot vositalari vakillari ishtirok etgan navbatdagi sessiyani tuman hokimi, Xalq deputatlari tuman Kengashi raisi A.Abdullayev boshqarib bordi.

Sessiya kun tartibiga ko'ra, Qo'shtepa tumanining 2025 yilgi mahalliy byudjetini tasdiqlash, Qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yerlardan foydalanish holatini o'rganish natijalari, Qo'shtepa tumanida 5-bosqich "Ayollar daftari" ro'yxatiga kiritilgan xotin-qizlarni ijtimoiy qo'llab-quvvatlash, ularning bandligini ta'minlash bo'yicha amalga oshirilgan ishlar to'g'risidagi masalalar ko'rib chiqildi.

Yuqoridagi masalalar yuzasidan tuman Iqtisodiyot va moliya bo'limi boshlig'i I.Akbarov, tuman hokimi A.Abdullayev, tuman hokim o'rinbosari, oila va xotin-qizlar bo'limi boshlig'i M.Yuldashevalarning axborotlari tinglandi.

Sessiya ishida ko'rilgan masalalar yuzasidan deputatlarning fikr-mulohazalari va takliflari asosida xalq deputatlari tuman Kengashining tegishli qarorlari qabul qilindi.

2024-12-26 12:46:46